

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR OLIY TA'LIMIDA O'QITISH SIFATI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Rayimova Farangiz Erkin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti
rayimov.s@mail.ru

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv modellari, chet el ta'lif tizimlari, kooperativ ta'lif, o'zbekistondagi ta'lif dasturlari.

Annotation

ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda ta'lif tizimi sifatini oshirish uchun amaldagi olib borilayotgan boshqaruv modellari va ularni o'zbekistonda qo'llash uchun mavjud shart sharoitlar keltirib o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2025 LWAB.

Kirish

Bugungi kunga kelib oliy ta'lif tizimida innovatsion boshqaruv modellarining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirganda, bu tizimning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda boshqaruvga yangicha qarashlarni o'z ichiga olgan tizim ko'z oldimizga keladi. Oliy ta'lif tizimi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi. Ta'lif sohasida innovatsion boshqaruv modellarini qo'llash, global raqobatbardoshlikni oshirish, ta'lif sifatini yuqori darajada ushlab turish va bilim iqtisodiyotiga moslashuvchan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan davrda ta'limga va ayniqsa oliy ta'limga ko'pgina o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Har bir oliy ta'lif o'ziga xos va mos innovatsion boshqaruv modellarini ishlab chiqmoqda. Innovatsion boshqaruv modellari o'zi nima? degan savolga duch kelishimiz mumkin.

Innovatsion boshqaruv modellarining asosiy maqsadi oliy ta'lif tizimini raqobatbardosh, moslashuvchan, samarador qilishdan iboratdir. Bular orqali biz ilg'or texnologiyalar, xalqaro standartlar va ijtimoiy ehtiyojlarni uyg'unlashtira olamiz.

Oliy ta'lif tizimida talab va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv o'z samardorligini ko'rsatmoqda.

Yanada chuqurroq va aniq tushuntiradigan bo'lsak yangi talablarni aniqlab ularni hisobga olib, boshqaruv tizimimizni shunga bog'lab natijalarga erishish.

Hozirgi davrda oliy ta'limga ehtiyojlarning tezkor o'zgarayotgnligi sababli oliy ta'lif mussasalari o'z dasturlarini bu talablarni qondira oladigan tizimga moslashtirmoqda. Innovatsion boshqaruv modellari talabalarda bilim olish jarayonida faqat nazariya emas balki amaliyotni ham ta'minlanishini ma'qillamoqda. Chunki bu orqali talabalarda faqat nazariy bilimlarni emas balki kelajagini ko'zlagan holda amaliy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Bu orqali natijaviylik tamoyilini bajarmoqda. Ya'ni bitirib chiqqan yoshlarni ishga joylashtirish darajasi oshadi, talabalar va ish beruvchilar o'rtafiga aloqalar yaxshilanadi, bunda xar ikki tomonham qiyinchiliklarga duch kelmaydilar va bu orqali ishsizlik va VIP ya'ni diplomli ishsizlar soni kamayishi ta'minlanadi. Chunki oliy ta'lif muassasasi nufuzli korxonalarga bilimli, tajribali tayyor kadrlarni

yetshtirib beradi va bu orqali mahalliy va xalqaro reytinglarda yuqori o'rirlarni qo'lga kiritadi. Bu esa ularga nufuzli universitet maqomiga erishishga sabab bo'ladi. Ta'lim muassasalarini o'rtasidagi hamkorlik ham yaxshilanadi. Tarmoqlashuv va xalqaro integratsiya yo'lga qo'yiladi. Bu bizga nima beradi qanday foydali jihatlari bor degan savolga javoban innovatsion boshqaruv oliy ta'lim muassasalarini o'rtasida tajriba almashish imkonii beradi bu esa o'z navbatida bir nechta kamchilik, qiyinchiliklarni oldini oladi. Masalan bu orqali ular qo'shma ta'lim dasturlari, qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalari amalga oshiriladi.

Oliy ta'limdagi sifatni va uning darajasini belgilash uchun ular xalqaro akkreditatsiyadan o'tishlari kerak bo'ladi. Ta'lim dasturlari xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olinishi uchun akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Bu esa universitetning bitiruvchi talabalarini xalqaro mehnat bozoridan o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi va talabgirligini oshiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda universitetlarning ta'lim dasturlari milliy va xalqaro akkreditatsiya organlari tomonidan muntazam nazorat qilinadi. Quyida ulardan bir qanchasini misol tariqasida keltirib o'tmoxchiman:

AQSh: National Council for Accreditation of Teacher Education (NCATE) va ABET (Engineering dasturlari uchun) kabi organlar ta'lim sifatini tekshiradi. Kredit tizimi orqali talabalar fanlarni tanlashda mustaqil qaror qabul qiladilar. Ilmiy grantlarning katta qismi universitetlarga taqdim etiladi.

Evropa Ittifoqi: Bologna jarayoni va ECTS kredit tizimi orqali universitetlararo standartlashtirish va mobillikni ta'minlaydi.

Buyuk Britaniya: QAA (Quality Assurance Agency) oliy ta'lim sifatini muntazam monitoring qiladi.

Finlyandiya: Universitet o'qituvchilari pedagogik maxsus tayyorgarlikdan o'tishi majburiy.

Germaniya: Universitet professorlari ilmiy darajadan tashqari, soha bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishlari talab etiladi. Dual ta'lim modeli o'quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lash imkonini beradi.

Kanada: "Kooperativ ta'lim" modeli orqali talabalar o'qish bilan birga ishslash imkoniga ega.

Avstraliya: Talabalar uchun o'zlashtirish darajasiga qarab moslashtirilgan o'quv rejalar joriy etilgan.

Janubiy Koreya: Universitetlarning ilmiy faoliyatini davlat va xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish.

Ushbu barcha ta'lim dasturlarini O'zbekistonda qo'llash uchun uni o'zbeklashgan modelini ishlab chiqish zarur shu sababli ularni yuqoridaq ta'lim dasturlariga o'xshash variantlari haqida qisqacha ko'rinishda talqin qilamiz:

- **Milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish:** Ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiya talablariga mos ravishda takomillashtirish.
- **Maxsus tashkilotlar tuzish:** Mahalliy universitetlarning sifatini xalqaro darajada baholash uchun mustaqil akkreditatsiya agentliklarini tashkil qilish.
- **Korxonalar va universitetlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.**
- **Talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashini majburiy qilib belgilash.**
- **Startap loyihalar uchun grantlar ajratish.**
- **Kredit-modul tizimini to'liq joriy etish:** Bu tizim orqali talabalarga o'z qiziqishlari va kelajakdag'i kasbiy yo'nalishlariga mos fanlarni tanlash imkonini berish.
- **Maslahatchi tizimini rivojlantirish:** Har bir talabaning shaxsiy o'quv rejasini shakllantirishda maxsus maslahatchilarni jalb qilish.

- **Xususiy sektor va davlat o‘rtasida ilmiy loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish.**
- **Universitetlarning tadqiqot natijalarini amaliyatga tafbiq etishini rag‘batlantirish.**
- **Xorijiy malaka oshirish:** O‘zbek o‘qituvchilarini yetakchi universitetlarda malaka oshirish dasturlariga jalg qilish.
- **Doimiy o‘qitish:** O‘qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta’lim metodologiyalarini o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil qilish.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv modellarining samaradorligi yuksalib bormoqda. Oliy ta’limni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini kuchaytirish orqali ta’lim tizimining sifatini oshirish mumkin. Innovatsion boshqaruv modellarining samaradorligi o‘qitish sifatini doimiy ravishda boshqarish va takomillashtirish orqali erishiladi. Mamlakatimizda bu jarayon davom etmoqda va kelajakda yana ko‘plab yangiliklar va ijobjiy o‘zgarishlar kutib turadi

Xulosa

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion boshqaruv modellarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini oshirish uchun xalqaro akkreditatsiya, korxonalar bilan hamkorlik, amaliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish uchun milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish, talabalar amaliyotini kuchaytirish, universitetlarni ilmiy tadqiqotlarga keng jalg qilish va startap loyihalar uchun grantlar ajratish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ta’lim jarayonida kredit-modul tizimini to‘liq joriy qilish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali ta’lim sifatini yanada yaxshilash mumkin.

Umuman olganda, innovatsion boshqaruv modellarini tatbiq etish natijasida O‘zbekistonda oliy ta’limning raqobatbardoshligi ortadi, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi talabgirligi kuchayadi va xalqaro miqyosda tan olinadigan ta’lim tizimi shakllanadi. Shu sababli, kelajakda oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. UNESCO Publishing.
2. Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University*. McGraw-Hill Education.
3. European Higher Education Area. (1999). *The Bologna Declaration of 19 June 1999*. Retrieved from www.ehea.info
4. Marginson, S. (2016). *High Participation Systems of Higher Education*. Journal of Higher Education, 87(2), 243-271. <https://doi.org/10.1353/jhe.2016.0012>
5. OECD. (2019). *Benchmarking Higher Education System Performance*. OECD Publishing. Retrieved from www.oecd.org
6. Scott, P. (1998). *The Globalization of Higher Education*. Open University Press.
7. Trow, M. (2007). *Reflections on the Transition from Elite to Mass to Universal Access: Forms and Phases of Higher Education in Modern Societies since WWII*. International Handbook of Higher Education, Springer.
8. UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Retrieved from www.unesco.org

9. World Bank. (2020). *The Changing Nature of Work and Higher Education: Implications for Policy and Practice*. Retrieved from www.worldbank.org
10. Zgaga, P. (2013). *Higher Education Reforms in the European Higher Education Area*. Journal of Education Policy, 28(4), 367-386. <https://doi.org/10.1080/02680939.2013.768519>